



**YOSHLARNI BARKAMOL QILIB TARBIYALASHDA AHMAD  
G'AZZOLIY G'OYALARINING AHAMIYATI**

**Xodjayeva Fotima Nabixonovna**

Buxoro davlat universiteti katta o'qituvchisi

**Halimova Munisa Nodir qizi**

Buxoro davlar universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12217177>

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ilmiy, ma'naviy, madaniy sohalardagi islohotlar natijasida jahonga mashhur allomalarimiz, mutafakkirlarimiz ilmiy ma'naviy me'rosini, ularni tasavvufiy-falsafiy g'oyalarini o'rganishga alohida e'tior qaratildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev aytganidek: "Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-manaviy me'rosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o'lmas meros hamisha yonimizda bo'lib bizga doim kuch-quvvat va ilhom bag'ishlashi lozim. Avvalombor, milliy ta'lim tizimini ana shunday ruh bilan sug'orishimiz kerak. Buning uchun olim va mutaxassislarimiz, hurmatli ulamolarimiz bu ma'naviy xazinani bugungi avlodlarga sodda va tushunarli, jozibali shakllarda yetkazib berishlari zarur" [1].

O'rta asr musulmon jamiyatida axloq masalalari eng muhim o'rindan birini egallaydi. Buning asosiy sabablaridan biri axloq ijtimoiy-siyosiy va huquqiy g'oyalar bilan bir qatorda dindorlar ongida mavjud bo'lgan dunyo manzarasining muhim tarkibiy qismini tashkil etgan va ularning tamoyillarini belgilab bergan. Aynan axloq kishilarga ijtimoiy-siyosiy hayotda ham, qadriyat yo'nalishlarini ham taqdim etdi. Shu sababli axloqiy g'oyalar, ularning diniy-falsafiy tushunchalari nafaqat ilohiyotshunoslarning, balki faylasuflar va tasavvuf namoyandalari asarlarida ham muhokama mavzusi bo'lgan.

Ahmad G'azzoliy asarlaridagi komil inson tarbiyasi, go'zal insoniy fazilatlar sabr, sidq (rosgo'ylik) yaxshilik, taqvoli bo'lish, insonparvarlik g'oyalari yoshlarni barkamol qilib tarbiyalash, ularni dunyoqarashini shakllanishida muhim ahamiyat egadir.

Inson Alloh taolo yaratgan barcha mavjudotlar ichida eng aziz va mukarram xilqat. Islom nazdida barcha insonlar barobar, bir-birlariga birodardirlar. Ulardan biri boshqasidan hech narsada- na boylikda, na mansabda, na chiroyi yoki xushbichim gavdasi bilan, na jamiyatda tutgan o'rni bilan ustun bo'la oladi. Alloh nazdida insonlarning eng ulug'i faqat Uning o'zidan qo'rqedigan taqvodorlaridir.



Ahmad G'azzoliy ta'lomitida inson muammosi ham alohida o'rin tutadi. Ahmad G'azzoliyning chuqur e'tiqodiga ko'ra, inson evolyusiyasi o'zidan oldin bir qancha bosqichlarga ega bo'lgan. Avval minerallar, keyin o'simliklar va hayvonlar paydo bo'lgan, shundan so'ng inson paydo bo'lgandir. Inson, Ahmad G'azzoliyning fikricha, boshqa turdag'i mavjudotlar orasida cheksiz va ko'p shaklli olamda yashaydi, unda alohida o'rin egallaydi. U Xudoni bilishga va U bilan birlikka erishishga qodir. Bu bilan u boshqa borliq turlaridan ajralib turadi va o'zining shu qobiliyati bilan bu olamdag'i boshqa mavjudotlardan ustun turadi.

Ahmad G'azzoliy insonparvarligining yana bir muhim jihatni shundan iboratki, u ko'pchilik o'rta asr mutafakkirlari kabi insoniyatni maxsus (xos) va oddiy (omma) guruhlarga ajratmaydi. Mutafakkir payg'ambarlar ham oddiy odamlar ekanligi, har bir inson shu maqomga chiqishi mumkin, deb hisoblaydi. Inson tanasi, mutafakkirning fikricha, aslida pokdir. U shisha idishga o'xshaydi, lekin dunyoviy ehtiroslar unda to'planib, uni qandaydir iflos bir narsaga aylantiradi. Inson dunyoviy ehtiroslardan voz kechib, yana tanasining shisha idishini nur bilan to'ldirishi, uni tozalashi mumkin.

Ma'lumki, bugungi kunda yurtimizning barcha sohalarida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni asosida islohotlar yangi bosqichga chiqdi. E'tiborlisi, ushbu yangilanishlarda "Inson qadri uchun" tamoyili ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Yurtimizda olib borilayotgan barcha islohotlar inson qadrini ulug'lashga, uning orzu-umid, ezgu maqsadlarini ro'yobga chiqarish uchun xizmat qilmoqda.

Ahmad G'azzoliy qarashlarining bugungi kun uchun yana bir e'tiborli jihatni shundaki, boylik orttirish avj olgan bugungi global jamiyatda nafs va uning tarbiyasi masalasidagi fikrlari e'tiborga loyiq. U o'zining "Bahrul muhabba" asarining lymon xabarlari haqidagi faslda nafs haqida "kimki nafsi va havosidan g'olib kelmasa, unga oxiratdan nasiba yo'qdir", deya yozadi.

Alloma bashariyatga murojaat qilib Nafsing senga g'olib bo'lishidan saqlan!, deya qayd etadi. Uningcha, dushmanlarning dushmanrog'i o'z vujudingdagi nafsingdir. Nafs ehtirosli xoxishlar bilan to'ladir, dunyo ofatlar bilan to'ladir. Agar ularga nisbatan chora-tadbir ko'rmasang, tubanlikka tushasan.

Noiloj to'rt narsada imtihon bo'ldim man-o,  
Ko'p bo'ldi chun baxtsizlik, ko'paydi azmi balo.



# THEORETICAL ASPECTS IN THE FORMATION OF PEDAGOGICAL SCIENCES

International scientific-online conference



Qanday xalos topayin, bas, ushbu dushmanlardan? –

Dushmanlarim – iblisu dunyoyu nafsu havo![2].

Vaqt to‘g‘risida mutafakkir quyidagilarni ta‘kidlaydi: “Ko‘pchilik o‘z vaqtining haqiqiy qadrini bilmaydi, shuning uchun ular mayda-chuyda narsalar bilan band. Qanday qilib qimmatli vaqtingizni ma’nosiz ishlarga sarflashingiz mumkin. Uning vayron bo‘lishidan xabari bo‘lmagan kishi, bu odam emas, balki inson tanasidagi hayvon degan qo‘rquvni tug‘diradi. Alloma yana shunday deydilar “hanuz o‘z nafsi o‘ylovi va g‘amida bo‘lgan solik vaqtning asiri bo‘ladi, vaqt esa uning zarariga ishlaydi”.

Yurtimiz yoshlari oldidagi ulkan marralarga yetishishi uchun bugungi vaqt ni zoye qilmaslikka, berilgan keng imkoniyatlardan unumli foydalanishga, vatanimiz, dinimiz uchun xizmat qiladigan fidoyilardan bo‘lishga intilmog‘imiz va doimo harakatda bo‘lishimiz shartdir!

Ahmad G‘azzoliy g‘oyalari Yangi O‘zbekiston yoshlarini barkamol qilib tarbiyalashda bu insonga bo‘lgan mehr-oqibat, sadoqatli, samimiyatli bo‘lishda, yaxshilik to‘g‘risidagi qarashlarida insonlar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat va totuvlik hissi ortishiga xizmat qilishda muhim omildir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Ahmad G‘azzoliy hayoti va ilmiy-ijodiy faoliyatini, yaratgan asarlarini chuqur tadqiq etish, ulardagi qimmatli ma‘lumotlarni aniqlash, saralash, ulardan bugungi kunda ijodiy foydalanish hamda hayotda keng tadbiq etish hozirgi kunning muhim vazifasidir. Allomaning ilmiy merosini o‘rganish yosh avlodni yuksak ma’naviyatli insonlar etib tarbiyalashga xizmat qilishi shubhasizdir.

## Adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev.O‘qituvchi va murabbiylar – yangi O‘zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir. O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdag‘i tabrigi,” Xalq so‘zi”, 2020-yil 1oktyabr. № 207. (7709) – 3 b.
2. Abul-Futuh-Shayx Agmad G‘azzoliy. Bahrul-muhabba (Muhabbat dengizi). – Toshekent: Sharq, 2019. – 66 b.
3. Турдиев, Б. (2024). JAMIYAT IDEOSFERASINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 4(2).
4. Sobirovich, T. B. (2023). Manifestations of Moral Threats in the Ideosphere of Uzbekistan and Their Prevention Strategy. Asian Journal of Basic Science & Research, 5(1), 103-108.



5. Sobirovich, T. B. (2023). Basic Criteria for Building the Third Renaissance in Uzbekistan. *Asian Journal of Applied Science and Technology (AJAST)*, 7(1), 149-157.
6. Sobirovich T. B. National Revival and Development Idiosphere of Uzbekistan. – 2023.
7. Sobirovich, T. B. (2023). Civil Society and its Influence in Society's Ideosphere. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 4(12), 84-89.
8. Sobirovich, T. B. (2023). MANIFESTATION OF CIVIL SOCIETY IN THE IDEOSPHERE OF UZBEKISTAN. *Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects*, 89-92.
9. Sobirovich, T. B., & Norman, Z. D. M. (2023). Harmony of National and Universal Values in Uzbekistan. *Harmony*, 7(1), 08-16.
10. Sobirovich T. B. National and universal principles of democracy //Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. – 2022. – T. 12. – №. 1. – C. 334-338.
11. Sobirovich T. B. The implementation of human indicator reforms in Uzbekistan //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – T. 10. – №. 9. – C. 197-202.
12. Turdiyev Б. The development of democratic society and spiritual renewal in the views of eastern and western thinkers //Общество и инновации. – 2020. – T. 1. – №. 1/s. – C. 710-717.
13. Sobirovich T. B. The development of democratic society and spiritual renewal in the views of Eastern and Western thinkers //INTERNATIONAL JOURNAL OF ADVANCED RESEARCH AND REVIEW. – 2020. – T. 5. – №. 10. – C. 60-65.
14. Sobirovich T. B. O 'zbekistonning ma'naviy yangilanish strategiyasi //Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti. – 2020. – C. 48.
15. Sobirovich T. B. Evolution of ideas and views on the development of democratic society and spiritual renewals //Scientific Bulletin of Namangan State University. – №. 10. – C. 243-250.

